



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmoxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abdusalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадирова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	



HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI

Botirova Raximaxon Abdujabbarovna

i.f.n., dots.,

Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosati tarkibiy tuzilishini shakllantirish masalalari moliyaviy nazorat va boshqaruv tizimini samarali tashkil etish nuqtai nazaridan ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Hisob siyosati elementlarining mazmuni, ularning boshqaruv qarorlarida tutgan o'rni hamda moliyaviy axborotning ishonchligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashdagi ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotda milliy standartlar, baholash tamoyillari va moliyaviy hisobotni shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar tizimli o'rganiladi.

Kalit so'zlar: hisob yuritish, axborot ta'minoti, tahlil, nazorat, muvofiqlashtirish, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, moliyaviy nazorat, boshqaruv.

Abstract. This article presents a scientific analysis of the formation of the structural components of accounting policy in business entities, focusing on the efficient organization of financial control and management. The study highlights the essence of accounting policy elements, their significance in managerial decision-making, and their role in ensuring the reliability and comparability of financial information. National accounting standards, valuation principles, and key factors influencing the preparation of financial statements are examined systematically.

Key words: accounting, information support, analysis, control, coordination, financial accounting, management accounting, financial control, management.

Аннотация. В статье проводится научный анализ вопросов формирования структурных элементов учетной политики хозяйствующих субъектов с точки зрения эффективной организации финансового контроля и управления. Подробно раскрывается содержание элементов учетной политики, их роль в процессе принятия управленческих решений, а также значимость обеспечения надежности и сопоставимости финансовой информации. В исследовании системно рассматриваются национальные стандарты, принципы оценки и факторы, влияющие на подготовку финансовой отчетности.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, информационное обеспечение, анализ, контроль, координация, финансовый учет, управленческий учет, финансовый контроль, управление.

KIRISH

Korxonalar tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, ularning barchasi moliyaviy hisobni Respublika miqyosida belgilangan umumiy tartibda, buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq yuritishi shart. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy buxgalteriya standartlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgani sababli, ular xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun hisob siyosatini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Hisob siyosati esa korxona rahbariyati tomonidan tasdiqlanadigan, buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotni tuzishning usullari va tashkiliy shakllari majmuasini o'z ichiga oladi.

Mazkur yondashuv korxonada hisob jarayonlarining izchilligini ta'minlaydi, moliyaviy axborotning aniqligi va shaffofligini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini yuqori darajaga olib chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hisob siyosati va boshqaruv hisobi bo'yicha yaratilgan ilmiy manbalar xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy axborotni shakllantirish tamoyillarini chuqur tahlil qiladi. Pardaev va Pardaeva boshqaruv hisobining nazariy asoslarini yoritib, hisob siyosatini shakllantirish jarayonida axborot tizimining o'rni va ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun buxgalteriya axborotining ishonchligi, o'z vaqtida yetkazilishi va taqqoslanuvchan bo'lishi muhim omillardir. Sheremet tahriri



ostida chop etilgan “Upravlencheskiy uchot” asarida moliyaviy va boshqaruv hisobi o’rtasidagi konseptual farqlar, baholash tamoyillari hamda sarf-xarajatlarni hisobga olish mexanizmlari batafsil yoritilgan. Nikolayeva va hammualiflar tomonidan tayyorlangan qo’llanmada esa aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy hisobot elementlarini baholashda qo’llaniladigan konseptual yondashuvlar, jumladan davriylik, betarafilik va moslik tamoyillarining amaliy ahamiyati asosli ravishda ochib beriladi.

“O’zbekiston – 2030” strategiyasida esa korxonalar uchun shaffof moliyaviy hisobot yuritish, standartlarni takomillashtirish va axborot sifatini oshirish ustuvor yo’nalish sifatida belgilangan bo’lib, mazkur adabiyotlar hisob siyosati tarkibiy tuzilishini ilmiy asoslashda muhim nazariy manba vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xo’jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosati tarkibiy tuzilishini o’rganish jarayonida nazariy-tahliliy yondashuv qo’llanildi. Avvalo, O’zbekiston Respublikasida amal qilayotgan buxgalteriya hisobi milliy standartlari, ularning mazmuni va konseptual asoslari normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida o’rganildi. Hisob siyosatini shakllantirishga oid tamoyillar — betarafilik, uzluksizlik, baholash va davriylik — mavjud ilmiy manbalar asosida, jumladan Pardaev, Sheremet va Nikolayeva tomonidan bayon etilgan qarashlar orqali qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, moliyaviy hisobot elementlarini e’tirof etish mezonlari hamda baholash asoslari strukturaviy tahlil yordamida o’rganilib, ularning korxona boshqaruviga ta’sir ko’rsatish mexanizmlari aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida konseptual yondashuvning mazmuni hamda hisob siyosati bo’limlarining amaliy ahamiyati tizimli ravishda umumlashtirilib, ular boshqaruv qarorlarini takomillashtirishdagi o’rni ilmiy asosda yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunga qadar O’zbekiston Respublikasida yigirma to’rtta buxgalteriya hisobi milliy standarti Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanib, Adliya vazirligi tomonidan ro’yxatdan o’tkazilgan. Milliy standartlarning har biri alohida hisob obyektlariga doir masalalarni hamda ularning yechimlarini yoritadi. Standartlar ichida barcha boshqa standartlar uchun poydevor vazifasini bajaruvchi eng muhim hujjatlar — nolinch va birinchi standartlardir.

Nolinch standartga muvofiq, O’zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi axborot tizimi sifatida konseptual asoslar ishlab chiqilgan. Mazkur asoslar buxgalteriya hisobi tizimi qanday tartibda va qanday maqsadda ishlashini tushunishda metodologik yo’nalish beradi. Ushbu paragrafning maqsadi — buxgalteriya hisobi konseptual asoslari haqida umumiy ilmiy ma’lumot taqdim etishdir. Konsepsiyalarni to’liq anglash uchun buxgalteriya axborotining o’ziga xos xususiyatlari aniqlab olinadi. Mazkur xususiyatlar tegishli sxemada aks ettirilgan.

Birinchi navbatda, buxgalteriya hisobi axborotidan foydalanadigan subyektlar qaror qabul qiluvchilar sifatida qaraladi. Ularga ehtiyotkor investorlar, kreditorlar va moliyaviy maslahat beruvchi ekspertlar kiradi. Ushbu foydalanuvchilardan buxgalteriya hisobi konsepsiyalari va protseduralarini to’liq va aniq tushunish talab etiladi. Buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi — qaror qabul qilish uchun zarur bo’lgan aniq, ishonchli va foydali axborotni taqdim etishdir.

Ushbu vazifa samarali bajarilishi uchun buxgalteriya hisobi ma’lumotlari muhimlik va ishonchlilikning asosiy sifat ko’rsatkichlariga ega bo’lishi zarur (1-jadval).

1-jadval. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining asosiy xususiyatlari. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari.

Quyidagilar asosida	Asosiy xususiyatlar
Foydalanuvchilar	Moliyaviy axborotga ehtiyoj sezadigan va ushbu axborot asosida qaror qabul qiluvchi subyektlar
Maqsadlar	Axborotning foydalilik darajasini oshirish orqali boshqaruv qarorlarini yanada aniq va samarali shakllantirishga yordam beradi
Boshlang’ich sifat sinflari	O’rinlilik: qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir etuvchi axborot. Ishonchlilik: ma’lumotlarning haqqoniy, xatosiz va tekshiriladigan bo’lishi
Ikkinchi darajali sifat ko’rsatkichlari	Taqqoslanuvchanlik: axborotni oldingi davrlar va boshqa xo’jalik subyektlari bilan solishtirish imkoniyati
Ahamiyatlilik	Qaror qabul qilishga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan, miqdor jihatdan kichik bo’lsa-da e’tiborga molik summalarining hisobga olinishi
Xarajatlar–daromadlar nisbatining samaradorligi	Foydalanuvchilarning maxsus moliyaviy axborotdan oladigan foydasi uni shakllantirish uchun sarflanadigan xarajatlardan yuqori bo’lishi zarur



Keltirilgan sxema buxgalteriya hisobining konseptual asoslari mohiyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, buxgalteriya hisobi konseptual asoslari foydalanuvchilarni zarur axborot bilan ta'minlash vazifasiga tayanadi. Aniqroq aytganda, buxgalteriya hisobi tomonidan shakllantiriladigan ma'lumotlarning mazmuni, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyoji, ushbu axborotning sifati va mazmuni, uni e'tirof etish mezonlari hamda tayyorlash va taqdim etish qoidalari konseptual asoslar doirasida belgilanadi. Konseptual tuzilmadan foydalanishda buxgalterlar ma'lum uslubiy qo'llanmalarga tayanadilar; ular tamoyillar, qoidalar va cheklovlar majmuasini tashkil etadi.

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini ro'yxatga olish, o'lchash va taqdim etishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan to'rt asosiy prinsip mavjud. Betarafilik tamoyili xo'jalik yurituvchi subyektlarni alohida iqtisodiy birlik sifatida ko'rib, mulk egasi yoki boshqa tashkilotlardan mustaqil ravishda baholanishini nazarda tutadi. Uzluksizlik tamoyili esa xo'jalik faoliyati davom etishiga asoslanadi va korxonaning yaqin kelajakda tugatilishi ko'zda tutilmasligini anglatadi. Baholash tamoyili xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va majburiyatlarning pul birligida ifodalanishini bildiradi. Davriylik tamoyili esa korxona faoliyatini ma'lum davrlarga ajratgan holda muntazam moliyaviy hisobotlar tuzishni taqozo etadi, bu esa foydalanuvchilar uchun qaror qabul qilish jarayonida katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, buxgalteriya hisobining qo'shimcha tamoyillari — tannarx, hisoblash, moslik va muvofiqlik tamoyillari — ma'lumotlarga qanday yondashilishini belgilaydi. Moliyaviy hisobotning tarkibiy elementlari ham konseptual asoslarning ajralmas qismi sanaladi. Moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan tushuntirish xatida hisob siyosati bo'limi muhim yo'nalishlarni yoritishi lozim, jumladan: moliyaviy hisobotni tayyorlashda qo'llanilgan baholash asoslari, hisob siyosatining har bir elementining mazmuni va zarur hollarda hisob siyosatidagi o'zgarishlarga berilgan asosli izohlar.

Moliyaviy hisobotni shakllantirishda foydalaniladigan baholash asoslarini — dastlabki qiymat, joriy qiymat, sotish qiymati, diskontlangan qiymat va balans qiymatini — foydalanuvchilar uchun ochiq va tushunarli tarzda yoritish zarur. Ushbu tamoyillar uzluksizlik qoidasiga ma'lum darajada o'xshash bo'lib, moliyaviy hisobotning umumiy asosini shakllantiradi. Ba'zi holatlarda turli baholash asoslaridan foydalanish talab etilishi mumkin, bunday vaziyatlarda aktiv va majburiyatlar toifasining qaysi baholash asosida tanlanganini aniq ko'rsatish lozim.

Hisobotdan foydalanuvchilar uchun hisob siyosatining xususiyatlarini ochib berishda rahbariyat mazkur yondashuv subyektning mumkin bo'lgan xatarlarini baholashga, kelgusidagi pul oqimlarini to'g'ri prognozlashga yordam berishini e'tiborga olishi kerak. Hisob siyosatini yoritish jarayonida foydani aks ettirish, jamlash tamoyillari, turli faoliyat yo'nalishlarini uyg'unlashtirish, birgalikdagi faoliyatni buxgalteriya hisobida aks ettirish, moddiy va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, jalb etilgan mablag'larning qiymati, kapital sarflar, investitsiya mulki, moliyaviy vositalar, ijara, tadqiqot va taraqqiyot xarajatlari, tovar-moddiy zahiralalar, soliqlar, zahiralalar, xodimlar bilan bog'liq xarajatlilar, xorijiy valyutalarni qayta hisoblash, faoliyat turlarini segmentlash, pulning qadrsizlanishini hisobga olish va hukumat subsidiyalarini aks ettirish kabi elementlar ham batafsil yoritilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yig'ilgan nazariy va amaliy ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosati tarkibiy tuzilishini ilmiy asosda va to'g'ri shakllantirish moliyaviy axborotning ishonchligi, taqqoslanuvchanligi hamda o'z vaqtida taqdim etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobi milliy standartlarida belgilangan konseptual asoslar, baholash tamoyillari va e'tirof etish mezonlari korxonalarda boshqaruv qarorlarini yanada samarali qabul qilishga xizmat qiladi. Betarafilik, davriylik, uzluksizlik va baholash kabi asosiy tamoyillarning izchil qo'llanishi hisob siyosatining amaliy ahamiyatini oshiradi, moliyaviy nazorat tizimining barqarorligini mustahkamlaydi.

Taklif etilishicha, korxonalar hisob siyosatini ishlab chiqishda amaldagi milliy standartlarga tayangan holda, o'z faoliyatining iqtisodiy va tashkiliy xususiyatlariga moslashtirilgan aniq tamoyillarni belgilab olishi zarur. Moliyaviy hisobotda baholash asoslarining ochiq va tushunarli tarzda yoritilishi foydalanuvchilar uchun axborotning shaffofligi, aniqligi va foydaliligi darajasini oshiradi. Shuningdek, rahbariyat hisob siyosati orqali kelajakdagi moliyaviy xatarlarni baholash mexanizmlarini kuchaytirishi, boshqaruv hisobini modernizatsiya qilish hamda axborot tizimlarini takomillashtirish bo'yicha izchil faoliyat yuritishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Pardaev A. X., Pardaeva Z. A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. Управленческий учет: Учебник. Под редакцией А. Д. Шеремета. – М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2005.
4. Рассказова-Николаева С. А., Шебек С. В., Николаев Э. А. Управленческий учет: учебное пособие. – СПб.: Питер, 2013.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>